ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/181-9505

Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

2026 №3 (34)



ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/2181-9505

Mirzo Ulug'bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi
O‘zbekiston falsafa jamiyati

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари
при Кабинете Министров Республики Узбекистан
Философское общество Узбекистана

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers
of the Republic of Uzbekistan
Philosophical Society of Uzbekistan

FALSAFA VA HAYOT
XALQARO JURNAL

ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ

PHILOSOPHY AND LIFE
INTERNATIONAL JOURNAL

2026 №3 (34)

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.
Журнал выходит 4 раза в год.
The journal is published 4 times in a year.

Toshkent

“Falsafa va hayot” xalqaro jurnal, “Философия и жизнь” международный журнал, “Philosophy and Life” international journal

Tahrir kengashi

Abdildina Raushan – Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi akademigi, falsafa fanlari doktori, professor (Qozog‘iston)

Botukanova Gulmira – Qirg‘iziston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Milliy fanlar akademiyasining vitse-prezidenti falsafa fanlari doktori, professor, (Qirg‘iziston)

Mamedzade Ilham – Azarbayjon Milliy fanlar akademiyasi Falsafa va sotsiologiya instituti direktori, falsafa fanlari doktori, professor (Azarbayjon)

Skarantino Luka Mariya – Bari universiteti professori, falsafa fanlari doctori, Jahon falsafa jamiyatlari federatsiyasi boshqaruvi a’zosi (Italiya)

Smirnov Andrey – Rossiya Federatsiyasi FA akademigi, Rossiya falsafa jamiyati prezidenti, falsafa fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Seytaxmedova Natal’ya – Qozog‘iston milliy fanlar akademiyasi akademigi, falsafa fanlari doktori, professor (Qozog‘iston)

Tsuy Veyxan – Xitoy ijtimoiy fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti, DSc, professor, (Xitoy Xalq Respublikasi)

Chumakov, Aleksandr – M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti professori, falsafa fanlari doktori, (Rossiya Federatsiyasi)

Muassislar:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi

O‘zbekiston falsafa jamiyati

Expert lawyers MCHJ Elc.uz

Ro‘yxatga olinganligi haqidagi 1175 sonli guvohnoma O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 20.02.2018 yilda berilgan.

Bosh muharrir:

Shermuxamedova Niginaxon – f.f.d., professor (O‘zbekiston)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Aslanova Rabiyat – f. f. d, professor (Azarbayjon)

Mas’ul muharrir:

Muhamedova Zamira – f.f.d., professor (O‘zbekiston)

Tahrir hay’ati:

Allahyarova Tahira – f.f.d., professor (Azarbayjon)

Andirjanova Gulnar – siyosiy fanlari doktori, professor (Qozog‘iston)

Abasov Ali – f.f.d., professor (Azarbayjon)

Axamer Gilbert – f.f.d., professor (Avstriya)

Buzarinejad Yahyo – f.f.d, professor (Eron)

Bilalov Mustafo – f.f.d., professor (Dog’iston, Rossiya Federatsiyasi)

Gabitov Tursin – f.f.d., professor (Qozog‘iston)

Gezalov Ariz – f.f.n., professor (Rossiya Federatsiyasi)

Kerimov Eyyub – f.f.d., professor (Azarbayjon)

Kurmangalieva Galiya – f.f.d., professor (Qozog‘iston)

Kurbonova Lola – falsafa fanlari doctori DSc, dotsent (O’zbekiston)

Lazarevich Anatoliy – f.f.n., dotsent (Belorus)

Olatunji Feliks – PhD, dotsent (Nigeriya)

Paxruddinov Shukriddin – siyosiy fanlari doktori professor (O‘zbekiston)

Pardayev Sultonmurod – falsafa doktori (PhD), (O‘zbekiston)

Sergeev Mixail – f.f.d., professor (AQSh)

Sagikizi Ayajan – f.f.d., professor (Qozog‘iston)

Tulenova Gulmira – f.f.d., professor (O‘zbekiston)

Tashdelen Vefa – f.f.d., professor (Turkiya)

Tyukmaeva Aida – falsafa doktori PhD (O‘zbekiston)

Hakimov Nazar – f.f.d., professor (O‘zbekiston)

Xudoydodzoda Farrux – f.f.d., professor (Tojikiston)

Xudoyberganov Rovshan – f.f.d., (DSc) professor (O‘zbekiston)

Mahmadizoda Nozim – f.f.d., professor (Tojikiston)

Naushabayeva Asem – falsafa doktori (PhD), professor (Turkiya)

Urmanbetova Jildiz – f.f.d., professor (Qirg‘iziston)

Baychun Chjan – f.f.d., professor (Xitoy)

Sharipova Erkayim – f.f.d., professor (Qirg‘iziston)

Ilmiy kotib:

Xidirov Mustafo – falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘zbekiston)

Musahhihlar:

Qodirov Javlon – (O‘zbekiston)

Po‘latov Anvar – (O‘zbekiston)

MUNDARIJA

SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI

Allaberdiyeva Lale Agageldiyevna	XORAZMDAGI MAMUNIYLAR DAVLATINING SIYOSIY TARIXIGA OID MANBALAR TAVSIFI VA VERIFIKATSIYASI	9-23
Fakunle, O. A., Raifu, I. O., Adedire, A. A.	HISTORICIZING ASO-OKE PRODUCTION IN ISEYIN TOWN, SOUTH-WEST NIGERIA	24-42
Mirzaraximov Baxtiyor Xoshimovich	TURIZM TA'SIRIDA IJTIMOIY ONGNING AKSIOLOGIK TRANSFORMATSIYASI: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL	43-54
Qosimova Nazira Omurkulovna	FUQAROLIK JAMIYATI VA IJTIMOIY INTEGRATSIYANI RIVOJLANTIRISHDA XALQ DIPLOMATIYASINING O'RNI	55-65

TA'LIM VA FAN FALSAFASI

Annaguliyeva Maral Muhammedovna	XALQ MASLAHATI SHAXSNI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH VA IJTIMOIYLASHTIRISHNING ETNOPEDAGOGIK OMILI SIFATIDA	66-83
Kamilov Davron Zafarovich	EMERJENTLIK FENOMENI VA UNING SINKRETIK TAFAKKURDAGI AKS ETISHI	84-95
Saifnazarov Ismail	RAQAMLI SIVILIZATSIYA SHAROITIDA SUN'IY INTELLEKTNI TADQIQ ETISHNING SINERGETIK METODOLOGIYASI: FALSAFIY TAHLIL	96-116
Xaydarova Aqida Xurramovna	BILIMLARNI SARALASH VA EPISTEMOLOGIK RATSIONALLIK	117-124

FALSAFA TARIXI VA TARIX FALSAFASI

Solomon Kolawole Awe, Oluwaseun Opeyemi Jemilehin	KANT FALSAFASIDA INSON QADR-QIMMATIGA HURMAT ZAMONAVIY AFRIKADA DAVLAT BOSHQARUVI TAMOYILI SIFATIDA	125-145
Michael Olatunji ONI	SARTR GUMANIZMI AFRIKADA MADANIY IDEALLAR TRANSFORMATSIYASI UCHUN IMPERATIV SIFATIDA	146-157

DUNYO MADANIYATI VA DINIY AN'ANALAR

Jimoh, Olumuyiva Vahab	TABIIY HUQUQ NAZARIYASIDA AXLOQNING ZARURATI	158-179

UDK: 111:165
10.5281/zenodo.23658416

Kamilov Davron Zafarovich
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
e-mail: davrkamil02@gmail.com.
(Toshkent, O‘zbekiston)

EMERJENTLIK FENOMENI VA UNING SINKRETIK TAFAKKURDAGI AKS ETISHI

Annotatsiya. Emerjentlik fenomeni qismlar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirlar natijasida ularning oddiy yig‘indisiga keltirib bo‘lmaydigan yangi sifatlarning vujudga kelishini tushuntirib, qism va butun munosabatlarining ontologik hamda gnoseologik mazmunini yoritishga imkon beradi. Sinkretik tafakkurda turli bilim shakllari, qadriyatlar va tajribalarning o‘zaro bog‘lanishi yangi ma’nolar va anglash shakllarining paydo bo‘lishi uchun zamin yaratadi. Biroq sinkretik birlashuvning har qanday ko‘rinishini emerjentlik sifatida baholash turli unsurlarning shunchaki qo‘shilishi bilan yangi sifatning yuzaga kelishi o‘rtasidagi farqni xiralashtiradi. Shu bois maqolaning maqsadi emerjentlik fenomenining falsafiy mohiyatini ochib berish, uning sinkretik tafakkurda namoyon bo‘lish shartlarini aniqlash hamda reduksionistik, holistik va tizimli yondashuvlarni qiyoslash asosida yangi sifat va ma’nolarning shakllanishidagi metodologik ahamiyatini asoslashdan iborat.

Kalit so‘zlar: emerjentlik, sinkretik tafakkur, qism va butun, yangi sifat, murakkab tizim, reduksionizm, holizm, tizimli yondashuv, falsafiy tafakkur, integrativ bilim.

KIRISH

Zamonaviy gnoseologiya va antropologiya mohiyati doirasida murakkab tizimlar, borliq hodisalari, shuningdek, ijtimoiy va kognitiv jarayonlarning tabiatini tushunish hamda ular o‘rtasidagi nochiziqli ta’sirlarni tadqiq etish bilan bog‘liq muayyan muammolar shakllanmoqda. Bu muammolardan biri tafakkurning sinkretik tabiatini qismlarga ajratish bo‘lib, uning butunlikda namoyon bo‘luvchi emerjent xususiyatlari yangi ma’no hosil qilish jarayonlarini to‘liq ifodalamasligini asoslash va nisbatan yangi metodologik yondashuvdan foydalanishga ehtiyoj oshmoqda. Bu murakkab tizimlarning tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlarda emerjentlik fenomenining o‘rni va ahamiyatini to‘g‘ri baholashni talab qilmoqda. Chunki emerjentlik murakkab tizimlardagi sinkretik holatlarni shunchaki

elementlarning mexanik qorishmasi sifatida emas, balki intellektual xilma-xillik natijasida shakllanadigan, ularning tarkibiy qismlarida takrorlanmaydigan yangi ma'nolarning generatsiyasi sifatida namoyon bo'lishini ilmiy-metodologik jihatdan asoslash uchun xizmat qilmoqda.

MATERIALLAR VA METODLAR

Mazkur maqolaning nazariy-metodologik asosini emerjentlik, murakkab tizimlar, qism va butun munosabati, reduksionizm, holizm hamda sinkretik tafakkur masalalariga bag'ishlangan falsafiy va ilmiy-nazariy adabiyotlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida Filip Kleyton, Samuel Aleksandr, Jaegvon Kim, Edgar Morin, Jorj Genri Holland, Garold Jorj Morovits, Vladimr Ivanovich Arshinov va Kristian Fuks kabi olimlarning emerjentlik, murakkablik va o'z-o'zini tashkil etuvchi tizimlar haqidagi qarashlariga tayanilgan. Maqolada, avvalo, emerjentlik fenomenining klassik talqinlari tahlil qilindi. Filip Kleytonning emerjentlikka oid qarashlarida mazkur hodisa fan, ong va murakkab tizimlarni tushuntirishda yangi paradigma sifatida baholangan. F.Kleyton emerjent hodisalar fizik, biologik va kognitiv jarayonlarda quyi darajadagi elementlarga to'liq keltirib bo'lmaydigan izoh darajalarini talab qilishini ta'kidlagan [Kleyton, 2004, b. 8]. Shu jihatdan uning yondashuvi maqolada sinkretik tafakkur tarkibida yuzaga keladigan yangi mazmun va yangi sifatlarni tahlil qilishda muhim nazariy asos sifatida olingan. Samuel Aleksandrning emerjent evolyutsiya haqidagi qarashlari esa emerjentlikni borliq taraqqiyotida yangi sifatlarning bosqichma-bosqich yuzaga kelishi bilan bog'liq holda talqin qilish imkonini beradi. Uning fikricha, voqelik qatlamlari oddiy mexanik qo'shilish orqali emas, balki rivojlanish jarayonida yangi sifatlar hosil qilishi orqali namoyon bo'ladi [Aleksandr, 1966, b. 24]. Bu yondashuv maqolada qism va butun munosabatining ontologik mohiyatini ochib berishda, xususan, sinkretik tafakkurdagi xilma-xil bilim shakllarining yangi intellektual butunlikni vujudga keltirishini asoslashda qo'llanilgan. Jaegvon Kimning emerjentlik haqidagi konsepsiyasi maqolaning gnoseologik asoslaridan biri sifatida foydalanilgan. Uning yondashuviga ko'ra, emerjent xususiyatlarning asosiy belgisi ularning quyi darajadagi xususiyatlarga to'liq keltirib bo'lmasligi, ya'ni oddiy sabab-oqibat yoki mexanik yig'indi orqali izohlab bo'lmasligida namoyon bo'ladi [Kim, 2006, b. 547]. Shu nuqtayi nazardan, maqolada sinkretik tafakkur tarkibida shakllanadigan yangi ma'no va mazmunlar murakkab o'zaro ta'sirlar natijasi sifatida talqin qilingan. Edgar Morinning murakkablik tafakkuri haqidagi qarashlari tadqiqotning muhim metodologik manbalaridan biri bo'lib, murakkablikni voqelikni soddalashtirib, ajratilgan qismlar orqali emas, balki o'zaro bog'liqlik, noaniqlik, ziddiyat, yaxlitlik va ko'p omillilik asosida anglash zarurati bilan bog'lagan [Morin, 2005, b. 544]. Ushbu yondashuv sinkretik tafakkurni turli bilim shakllari, qadriyatlar, madaniy tajribalar va ma'no qatlamlarini o'zaro bog'laydigan integrativ tafakkur shakli sifatida tahlil qilish imkonini berdi. Garold Jorj Morovitsning emerjentlik haqidagi qarashlari esa murakkablikning tabiiy va evolyutsion jarayonlar bilan bog'liqligini yoritishda muhim ahamiyat kasb etdi. Morovits emerjentlikni olam taraqqiyotining turli

bosqichlarida – kosmik, biologik, ijtimoiy va kognitiv jarayonlarda yangi darajalar va tuzilmalar paydo bo‘lishi bilan bog‘liq holda talqin qilgan [Morovits, 2002, b. 17]. Bu yondashuv maqolada emerjentlikni faqat tabiiy-ilmiy hodisa emas, balki falsafiy tafakkur, inson bilishi va sinkretik anglash jarayonlarini tushuntirishga xizmat qiluvchi umumiy metodologik tamoyil sifatida asoslash imkonini berdi.

V.I. Arshinov va C. Fuks tahriridagi tadqiqotlarda emerjentlik o‘z-o‘zini tashkil etish va murakkab tizimlar o‘rtasidagi aloqadorlik alohida tahlil qilingan [Arshinov, 2003, b. 5]. Mazkur yondashuv maqolada emerjentlikni faqat yangi sifatning paydo bo‘lishi emas, balki tizim ichidagi o‘zaro ta’sirlar, ichki bog‘lanishlar va murakkab aloqadorliklar natijasida shakllanadigan jarayon sifatida baholashga xizmat qilgan. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy-falsafiy tahlil, germenevtik talqin, konseptual tahlil, abstraktlashtirish, umumlashtirish va dialektik yondashuv metodlaridan foydalanilgan. Tizimli tahlil metodi emerjentlikni murakkab tizimlarning tarkibiy qismlarida alohida holda mavjud bo‘lmagan, biroq ularning o‘zaro munosabati natijasida yuzaga keladigan yangi sifat sifatida o‘rganishga imkon berdi. Qiyosiy-falsafiy tahlil orqali emerjentlikning klassik, zamonaviy, reduksionistik, holistik va sistemaviy talqinlari o‘zaro solishtirilgan. Mazkur maqolada foydalanilgan materiallar va metodlar emerjentlik fenomenini sinkretik tafakkurning ichki dinamikasini tushuntiruvchi muhim falsafiy-metodologik vosita sifatida tahlil qilishga xizmat qilgan. Mazkur yondashuv emerjentlikni murakkab tizimlardagi yangi sifatlar paydo bo‘lishi bilan cheklab qo‘ymasdan, uni inson tafakkuri, bilish jarayoni va ma’no hosil qilish mexanizmlarini tushuntirishda ham samarali nazariy tamoyil sifatida baholash imkonini beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Aksariyat falsafaga oid adabiyotlarda qism va butun munosabatlarining tizimli yaxlitligini tadqiq etishda Aristotelning ontologik qarashlari muhim ahamiyat kasb etishi qayd etilgan. U o‘zining “Metafizika” asarida “butun qismlarning oddiy yig‘indisidan farq qiladi, butun qismlarning yig‘indisidan tashqari yana qandaydir narsadir” [Aristotle. 2016. VIII.6], deb ta’kidlagan. Ammo u ham qism va butun munosabatlarining yaxlit tizim sifatidagi mohiyatini yetarli asoslamagan. Bizning fikrimizcha, XIX asrning o‘rtalarida kimyo va biologiya kabi tabiiy fanlarning yuqori sur’atlarda rivojlanishi dastlab sababiyat tamoyili haqidagi qarashlar, so‘ngra butun va qism munosabatlariga oid klassik xulosalarning tubdan o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatgan. Bu o‘zgarishlar, o‘z navbatida, reduksionistik qarashlarning universal metod sifatida inkor etilishiga va yangi metodologik yo‘nalishlarning vujudga kelishiga zamin yaratgan. Mazkur qism va butun o‘rtasidagi aloqadorlikka oid yangi metodologik yondashuv ingliz faylasufi Jon Stuart Millning falsafiy mulohazalarida yaqqol aks etgan. U sabab va oqibat o‘rtasidagi chiziqli aloqadorlik odatda sodda mexanik jarayonlarga xos ekanini, kimyoviy va biologik murakkab tizimlarda ushbu yondashuv metodologik jihatdan cheklanganligini asoslagan. Uning fikricha, “Mexanikada sabablarning birikmasidan kelib chiqadigan natijalarni ular alohida ta’sir qilganda amal

qiladigan qonunlar asosida hisoblash imkoniyati mavjud. Chunki har bir sabab alohida qanday natija bersa, birgalikda ham shu natijalarni aks ettiradi va biz ularni yig‘ishimiz yetarli bo‘ladi. Kimyoda esa bunday emas. Unda sabablar alohida bo‘ysungan qonunlar butunga aylanganida mutlaqo amal qilmaydi. Shu sababli yangi kombinatsiya qanday natija berishini faqat tajriba o‘tkazib bilishimiz mumkin” [Mill, 1884, b. 407]. U o‘z fikrini isbotlash maqsadida suvning kimyoviy tarkibini tahlil etar ekan, “Alohida bo‘lib o‘rganilganda vodorod yoki kislorodning xususiyatlaridan hech birida ularning birikmasidan hosil bo‘ladigan suvning xususiyatlari kuzatilmaydi”, [Mill, 1884, b. 408] deb ta’kidlagan.

J. Mill geteropatik effekt haqidagi qarashlari orqali sabablarning birgalikdagi ta’siri natijasida yangi sifat vujudga kelishini asosan sabab-oqibat munosabatlari doirasida talqin qilgan bo‘lsa-da, uning ontologik va gnoseologik mazmunini to‘liq ochib bermagan. U ilgari surgan g‘oyalarni esa Jorj Genri Levis tizimli nazariya sifatida rivojlantirgan. Aynan uning “Hayot va aql muammolari” asarida ilk bor “emerjentlik” tushunchasi falsafiy mazmunda qo‘llangan va mazkur tushuncha orqali butunning o‘z qismlariga nisbatan sifat jihatidan yangi hamda reduksiya qilib bo‘lmaydigan xususiyatlarga ega ekanligi asoslangan [Levis, 1875, b. 496]. Emerjentlik fenomenining tarixi va asosiy tamoyillarini tadqiq etgan AQShlik faylasuf Filip Kleytonning fikricha, G.V.Gegel mazkur nazariyaning zamonaviy davrdagi fundamental asoschisidir. Uning fikricha, Gegel triadasidagi “borliq” va “yo‘qlik” o‘rtasidagi ziddiyat tufayli yuzaga keladigan “paydo bo‘lish” deb nomlangan bosqich emerjentlikning klassik ifodasidir [Kleyton, 2004, b. 8]. Bizning fikrimizcha, F. Kleytonning Gegel dialektikasini emerjentlikning tarixiy-metodologik manbalaridan biri sifatida baholashi uchun yetarli asos mavjud. Chunki Gegel dialektikasi zamonaviy emerjentlik tushunchasining abstrakt-nazariy asosi bo‘lib xizmat qilgan. Ammo uning idealistik yondashuvidagi “Mutlaq Ruh”ning yuqoridan quyi tomonga yo‘nalgan deduktiv rivojlanish trayektoriyasiga oid qarashlari keyingi davrdagi emerjentlikning moddiy jismlar qismlarining quyidan yuqoriga tomon yo‘nalgan induktiv rivojlanish yo‘li haqidagi talqinidan keskin farqlanishini ham inobatga olish lozim. Gegeldan farqli ravishda britaniyalik emerjentist Samuel Aleksander “Fazo, vaqt va ilohiylik” asarida fizikalist sifatida murakkab tizimlarda yangi sifatlarning paydo bo‘lishini tan olgan. U barcha jarayonlar moddiy asosga tayanishi, tizimdagi murakkablik ortib borgan sari yangi xususiyat kasb etishini ta’kidlab, emerjentlik bu “fizik va kimyoviy jarayonlarning o‘z tabiatiga ko‘ra o‘zgarmasligi, neyron jarayonlar ham fizik-kimyoviy jarayon bo‘lib qolishi, biroq o‘ziga xos xususiyat kasb etishi, inson chuqur fikr yuritayotganida, alohida “ruhiy substansiya” mavjud bo‘lmasa ham uning organizmi ushbu yangi faoliyat shaklini tashuvchisiga aylanishini”, [Aleksander, 1966, b.14] ta’kidlagan.

Amerikalik faylasuf Jaegvon Kim o‘zining “Emerjentlik: asosiy g‘oyalar va muammolar” nomli maqolasida XX asrning oxirida ilmiy jamoatchilikda emerjentlik mavzusiga bo‘lgan qiziqishning yangi to‘lqini yuzaga kelganini asoslashga harakat qilgan. Uning fikricha, “emerjentlik g‘oyasi analitik faylasuflarning bir necha o‘n yilliklar davomidagi umumiy e’tiborsizligi va

bepisand munosabatlariga uchragandan so‘ng, taxminan 1990-yildan boshlab ilm-fanga meynstrim oqimi kabi yuqori sur’at bilan qaytdi, ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar keng trayektoriya bo‘ylab davom etadi” [Kim, 2006, b. 547]. U “emerjentlik” tushunchasining polisemantik tabiatiga e’tibor qaratib, “Biz hozir ushbu tushunchaning, ayniqsa, ba’zi olimlar va publitsistlar tomonidan umumqabul qilingan ma’nosining mavjudligiga yetarlicha e’tibor bermagan holda erkin tarzda foydalanilayotganligining guvohi bo‘lmoqdamiz” [Kim, 2006, b. 547], degan mulohazasi bilan ilmiy tadqiqotlarda metodologik tarqoqlik hamda plyuralistik munosabat shakllanganini qayd etgan. Zero, tabiiy va ijtimoiy jarayonlarda qism va butunning o‘zaro ta’siri muayyan tasodiflar orqali yaxlitlik kasb etishi yoki yaxlitlikning buzilishiga olib kelishi mumkin. Darhaqiqat, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda emerjentlik fenomeniga turlicha ta’riflar berilgan. Ammo har qanday tushunchaga berilgan ta’rif uning doirasini chegaralashi va muayyan nuqtayi nazar bilan bog‘lanishini e’tiborga olsak, neytral ta’rif mavjudligiga shubha yuzaga keladi. Shunday bo‘lsa-da, emerjentlikni nazariy tahlil qilish, uni har bir tadqiqot doirasida ta’riflash muhim metodologik vazifa hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, emerjentizmni ta’riflash va tahlil etishda mazkur tushunchani mantiqiy asoslagan J.S. Mill, uni falsafa tarixida ilk bor muomalaga kiritgan G.H. Levis, ushbu g‘oyaning izchil ontologik tizimini ishlab chiqqan Britaniya emerjentizmi vakillaridan Samuel Aleksander, Konviy Loyd Morgan, Charliy Danbar Broadning nazariy qarashlarini inobatga olish maqsadga muvofiq. Mazkur olimlarning falsafiy qarashlari bir-biriga to‘liq muvofiq bo‘lmasa-da, ular o‘rtasida yetarli darajada umumiylik hamda konseptual yaqinlik mavjud. Taniqli rus faylasufi Vladimir Ivanovich Arshinov va avstriyalik faylasuf Christian Fuchs tahriridagi zamonaviy tadqiqotlarda emerjentlik tizim elementlari o‘rtasidagi sinergetik o‘zaro ta’sir, yangi sifatlarning vujudga kelishi, ularning reduksiyalanmasligi, prognozlashning imkonsizligi, yaxlitlik va tarixiylikda namoyon bo‘luvchi asosiy belgilari tasniflangan [Arshinov va boshqalar, 2003, b. 5]. Ammo mazkur talqinda yangi sifatning paydo bo‘lishida tasodif, ehtimollik va kontingentlikning ontologik maqomi yetarlicha ochib berilmagan. Biz emerjentlik fenomenini biofizika nuqtayi nazaridan tahlil qilishga harakat qilamiz. Masalan, AQShlik Garold Jorj Morovits o‘zining biofizika sohasidagi tadqiqotlarida, xususan, “Barcha narsalarning emerjent shakllanishi” asarida koinotning 12 milliard yillik tarixi ibtidosi bo‘lgan “katta portlash” hodisasidan boshlab inson ongining shakllanishigacha bo‘lgan 28 turdagi emerjentlik hodisasini ilmiy va falsafiy nuqtayi nazardan tizimli tahlil qilgan. U Pier Teilhard de Chardinning falsafiy mulohazalarini zamonaviy biofizika va axborot nazariyasi yutuqlari bilan boyitib, “noosfera” konsepsiyasini ilmiy-falsafiy jihatdan asoslagan va “emerjentlikni tartibli ravishda protonlardan to faylasuflar ongiga qadar bo‘lgan rivojlanish jarayoni” deb ta’riflagan. Ya’ni vujudga kelgan olam o‘z-o‘ziga murojaat qiladi va o‘zi haqida fikrlay boshlaydi. Jorj Vold ta’kidlaganidek, fizik olimning faoliyati bu atomning atomlar haqida tafakkur yuritishidir”, [Morovits, 2002, b. 17] deb baho bergan. G. Morovitsning konsepsiyasida tafakkurning paydo bo‘lishi bu materiyaning o‘z-o‘zini anglash darajasiga ko‘tarilishidir. U mazkur jarayonda bilishning “subyekt-obyekt”

dixotomiyasi birlashishini ta'kidlab, inson ongini borliqning emerjent davomi va uning o'z-o'zini anglash mexanizmi sifatida talqin qilgan. Bizning fikrimizcha, G. Morovitsning yagona substansiyaning murakkab shakllanishi jarayonida yangi sifatlarni hosil qilishi haqidagi qarashlari ongni materiyadan tashqaridagi mustaqil ontologik birlik emas, balki uning uzoq emerjentlik hodisasi ta'sirida vujudga kelgan oliy natijasi sifatida talqin etuvchi monizm tarafdori ekanidan dalolat beradi. Ushbu yondashuv materiyani stratifikatsiyalangan mohiyat sifatida talqin qilish orqali emerjentlikni tahlil qilgan bolgariyalik olim Slaveyko Gospodinovning mulohazalari bilan muayyan darajada muvofiq ekanini kuzatish mumkin. Uning fikricha, "emerjentizm namoyandalari fizik substansiya masalasida monizm pozitsiyasida turib, olamda faqat bir turdagi materiya mavjudligini e'tirof etsalar-da, uning tashkil topishini muayyan iyerarxik qatlamlarga – stratifikatsiyaga ajratilgan holda talqin qiladilar. Ushbu yondashuvga ko'ra, materiyaning har bir darajasi, ya'ni pog'onasi, o'ziga xos kategoriyalarga mansub bo'lib, ularning har biri quyi darajadagi xossalarga reduksiya qilinmaydigan fundamental va yangi xususiyatlar bilan tavsiflanadi" [Gospodinov, 2022, b. 95]. Bunda har bir daraja materiya tashkil topishining quyi darajasiga asoslansa-da, ularning har biri mustaqil xususiyatga ega bo'lib, tarmoqsimon shaklda rivojlanishi qayd etilgan. Biz G.Morovitsning borliqning moddiy rivojlanishida emerjentlik iyerarxiyasi tamoyillariga tayangan holda insoniyat taraqqiyotining 28 turdagi emerjent evolyutsiyasi hamda unda sinkretlashuv jarayonining aks etishini tahlil qilishga harakat qilamiz. Bizning fikrimizcha, uning ushbu yondashuvi sinkretlashuvni tafakkur rivojlanishidagi tasodifiy va uzluksiz mexanik hodisa emas, balki muayyan ziddiyatli yoki kognitiv nomutanosiblik ta'sirida shakllanuvchi izchil hamda tadrijiy jarayon sifatida talqin etish imkonini beradi. Biz gipotezamizni konseptual dalillash maqsadida insoniyat tafakkuri tarixining quyidagi 3 bosqichli emerjent xronologiyasini tasniflashni taklif qilamiz, ular:

birinchi bosqich "Mifologik-sinkretik tafakkur davri";
ikkinchi bosqich "Differensial-nazariy tafakkur davri";
uchinchi bosqich "Integratsion-metodologik tafakkur davri".

Mazkur xronologik tasnif asosida ushbu bosqichlarni ta'riflashga harakat qilamiz. Birinchi "Mifologik-sinkretik tafakkur davri" eng sodda va insoniyat tarixidagi eng muhim bosqich bo'lib, unda naturalistik bilim, ya'ni tabiat haqidagi stixiyali tasavvurlar, jamoaviy munosabatlar ta'siri, jamoa ongining shakllanishi hamda ijtimoiy tartiblar geterogen manba sifatida o'zaro sinkretlashgan. Mazkur jarayonlar ta'sirida ilk sinkretik tafakkur dunyoning yaxlit mifologik manzarasini emerjent hodisa sifatida aks ettirdi. Mazkur sinkretiklik insonning borliq bilan dastlabki emotsional va intellektual mutanosibligini ifodalagan hamda keyingi differensiallashuv jarayonlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilgan. Biz Qadimgi dunyo tafakkuri tarixini tadqiq etgan olim Aleksey Olegovich Krilovning ilk falsafiy qarashlar Sharqda yozuv madaniyati shakllanishidan avval yuzaga kelgani haqidagi g'oyalarini asosli deb hisoblaymiz. Uning fikricha, "qadimgi hikmat kategoriyasi moderndan avvalgi sinkret dunyoqarash bilan uzviy bog'liq bo'lib, unda ong va tashqi olam, ruhiy va moddiy, axloqiy va jismoniy, muqaddaslik va

oddiylik o‘rtasida qat’iy chegara mavjud bo‘lmagan. Shu bois zamonaviy tadqiqotchi o‘zining modern dunyoqarashi bilan o‘rganishga kirishganda bu turdagi sinkret va holistik tushunchani axloq, huquq, ilm, ilohiyot, falsafa, marosim, sehr, folklor, adabiyot, kundalik turmush tarzi, mif va pedagogika kabi sohalarga ajratadi” [Krilov, 2024, b. 36]. Bu esa ibtidoiy tafakkurda emotsional va intellektual munosabatlar sinkretlashgani hamda borliqni anglash yo‘lida vujudga kelgan mifologik ong emerjent hodisa sifatida namoyon bo‘lganidan dalolat beradi.

Shuningdek, rossiyalik faylasuf va madaniyatshunos olim Vladimir Solomonovich Biblerning fikricha, miflar jamoaviy ongda shakllangan badiiy obrazlardir. “Sinkret obrazlar ratsional va emotsional, strukturali va spontan, xayoliy va mantiqiy qarama-qarshiliklarning birligini o‘z ichiga oladi. Bunday sinkretizm muqarrar ravishda borliqni tafakkur bilan ayniyatlashtirishga olib keladi” [Bibler, 1991, 21-22] va bu miflar jamoaviy ongda shakllangan badiiy obrazlarning tafakkurdagi ifodasini namoyon etadi. Rossiyalik faylasuf Dmitriy Leonidovich Rodzinskiy esa V. Biblerning mulohazalarini to‘ldirgan va mifologik ong “muammolarni aniqlashdan ko‘ra, ularni hal etish yo‘l va usullariga yo‘naltirilgan”ligini asoslagan. Insoniyat tafakkuri tarixining ikkinchi bosqichi – “Differensial-nazariy tafakkur davri”da qadimgi sivilizatsiyalarning nazariy-metafizik hamda ratsional tizimlarining umumlashishi natijasida yangi emerjent holatlar o‘z ifodasini topgan. Bu bosqich insonning voqelikni stixiyali-empirik yoki mifologik tasavvurlar bilan cheklanmasdan, borliqning umumiy qonuniyatlari, uning inson hayoti uchun ahamiyatini nazariy jihatdan anglashga urinishi, mohiyat, ibtido, ruh, haqiqat, adolat va sababiy bog‘lanishga baho berishi bilan mifologik tafakkur bosqichidan farq qilgan. Mifologik tafakkurdan differensial-nazariy tafakkur davriga o‘tish jarayonlarini G‘arb olimlari tahlil qilib, ular orasidagi o‘zaro aloqa va farqlarni asoslaganlar. Xususan, Karl Yaspersning “vaqt o‘qi” tarixiy-falsafiy konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. U ushbu atamani miloddan avvalgi VIII asrdan to II asrgacha bo‘lgan davrda jamiyat tarixida sodir bo‘lgan tub burilish va kognitiv sakrash jarayonini ifodalash uchun qo‘llagan. Daniel Austin Mullins va uning hammualliflari tomonidan amalga oshirilgan “Seshat: global tarixiy ma’lumotlar bazasi” asosidagi kliodinamik tadqiqotlarda “o‘q davri” bir vaqtda yuzaga kelmagani, bu jarayon uzilish va sakrashlar bilan namoyon bo‘lgani qayd etilgan. Ular K. Yaspersning “o‘q davri” gipotezasining sinxronligi va globalligiga shubha bilan qaraganlar va “Yaspers “o‘q davri” insonlarning o‘zini va dunyodagi o‘rnini “zamonaviy” tarzda anglay boshlashining ibtidosi bo‘lgan, degan xulosasini qo‘llab-quvvatlaydigan tarixiy dalillarni maxsus izlab topishga intilgan” [Mullinas, 2018, b. 605], deb tanqid qilganlar. Darhaqiqat, zamonaviy empirik dalillar asosidagi mazkur tadqiqot qadimgi sivilizatsiyalarda kognitiv sakrash sinxron va parallel kechmaganini, ularni chiziqli xususiyatga ega universal tarixiy voqea sifatida talqin qilish mumkin emasligini tasdiqlaydi. Shuningdek, K. Yaspersning “o‘q davri” konsepsiyasi sof empirik va miqdoriy tahlillar asosida keng ko‘lamli kognitiv transformatsiyani yuzaga keltirgan aniq shart-sharoitlarni hamda ushbu kognitiv sakrashning mohiyatini to‘liq ochib bera olmaydi. Bizning fikrimizcha, bashariyat tafakkuri

taraqqiyoti mifologik ongni to‘liq inkor etish orqali emas, balki sinkretik qayta integratsiyalash asosida yangi bosqichga ko‘tarilgan. Bu borada britaniyalik tarixchi Fransis Makdonald Kornfordning “Falsafaning muzasi onasiz dunyoga kelgan Afina emas: agar insonning individual aql-zakovati uning otasi bo‘lsa, uning qadimiy va ulug‘vor onasi bu – dindir” [Kornford, 2019, b. 4], degan allegorik metaforasi tafakkur evolyutsiyasidagi vorisiylikning ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Chunki tafakkurdagi transformatsiyalar har bir makon va zamonga xos xususiyatlarga, xususan, muayyan jamiyatning ichki ziddiyatlariga javoban muntazam shakllanib borgan. Shu nuqtayi nazardan, biz ikkinchi davrni mifologik tafakkurning inqirozi emas, balki uning yangi kognitiv va metafizik darajada qayta tashkil etilishi sifatida baholaymiz. Bu jarayondagi turli axloqiy, diniy, kosmologik va ratsional g‘oyalarning sinkretlashuvi emerjent nazariy-metafizik tafakkurning mazmunida namoyon bo‘lgan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab klassik fan tamoyillaridagi keskin metodologik o‘zgarishlar tafakkurdagi yangi burilishda o‘z ifodasini topgan. Bu “Integratsion-metodologik tafakkur davri” deb nomlangan uchinchi bosqich bo‘lib, unda kvant mexanikasida kuzatish va o‘lchash amaliyotining takomillashuvi, Z.Freydning psixoanaliz ta’limotida ongsizlik qatlamlarining kashf etilishi, strukturaviy ma’noning alohida so‘zda emas, balki munosabatlar tizimida shakllanishi klassik fan metodologiyasining chegaralanganligini hamda barqaror birlik sifatida tadqiq etish tamoyilining cheklangan ekanini isbotladi. Shuningdek, kibernetika, biokimyo, biofizika va umumiy tizimlar nazariyasi kabi fanlararo sohalarning paydo bo‘lishi fanning ochiq tizim sifatida qayta baholanishini taqozo etdi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, bu davrdagi ilmiy kashfiyotlarda klassik fanning qat’iy va differensial qoliplari rad etildi, fanlarning ochiq tizim sifatida o‘zaro integratsiyalashuvi va hatto geterogen manbalarning sinkretlashuvi taqozo etildi. Kvant mexanikasining asoschilaridan biri, germaniyalik fizik-nazariyotchi Verner Geyzenberg klassik fan va falsafa talablari hamda noklassik fanning o‘ziga xos jihatlarini qiyosiy tahlil qilgan. Uning fikricha, “Har qanday bilim pirovard natijada tajribaga asoslanadi, degan qoida zamonaviy pozitivizmda tabiat haqidagi har bir mulohazani mantiqan tahlil qilishni talab qilishga olib kelgan. Bunday talab, bir qarashda, klassik fizikada o‘zini oqlagan. Ammo kvant nazariyasi rivojlanishi bilan biz bu talabning bajarilishi imkonsiz ekanligini angladik. Masalan, elektronning “koordinatasi” va “tezligi” so‘zlari avvallari alohida qiymatli va ehtimoliy bog‘lanish jihatidan ma’noga ega tushunchalar sifatida baholangan, chindan ham Nyuton mexanikasi doirasida ular shaffof va aniq tushunchalar edi. Ammo zamonaviy fizika nuqtayi nazaridan ular bunday xususiyatga ega emas” [Geyzenberg, 1989, b. 46]. Shuningdek, u “bilimlarimiz kengayib borishi jarayonida muayyan tushunchalarni qo‘llash chegaralari qayerda tugashini hech qachon avvaldan bilib bo‘lmaydi. Ayniqsa, bu bilim zamonaviy tajriba texnikasi yordamidagina anglay olishimiz mumkin bo‘lgan tabiatning g‘oyat uzoq sohalariga yetaklaganda, ularni oldindan bilish mutlaqo imkonsiz. Qat’iy mantiqiy soflik talabini bajarish, ehtimolki, hech qaysi fanda mavjud emas” [Geyzenberg, 1989, b. 46], deb ta’kidlagan. V.Geyzenbergning “mantiqiy

soflikning yo‘qolishi”ga oid xulosalarining nazariy va eksperimental sohalarga kirib borishi fan o‘z ichki imkoniyatlari bilan cheklanib qolmasligi, unda turli bilimlarni sinkretlashtirish jarayoni boshlanganidan dalolat beradi. Bizning fikrimizcha, aynan shu bosqichda fanda qat’iy klassik qoliplardan xoli bo‘lgan, yangi integratsiyalar uchun ochiq muhitda nochiziqli dunyoqarash bilan birgalikda tafakkurda yangi sifat xususiyatlari asosidagi emerjentlik ham namoyon bo‘ladi.

Sun’iy intellekt va sun’iy hayot fenomenlari mazkur jarayonning eng yorqin ko‘rinishlaridan biridir. Sun’iy intellekt mantiq, matematika, statistika, kibernetika, neyrofan, lingvistika, san’at va ijtimoiy amaliyotning o‘zaro sinkretlashuvi natijasida shakllangan bo‘lsa, sun’iy hayot biologiya, informatika, robototexnika va sintetik biologiyani yagona tadqiqot makonida jamlashi bilan tavsiflanadi. Shu ma’noda, ular navbatdagi texnik taraqqiyot emas, balki zamonaviy bilim sohalarining sinkretik-integrativ qayta tashkillanishi natijasida yuzaga kelgan emerjent voqelik sifatida baholanishi mumkin. Biroq ushbu emerjent voqeliklar faqat turli fanlar integratsiyasining natijasi bo‘lishi bilan cheklanmaydi, mazkur emerjent butunlik shakllangach, o‘zini yuzaga keltirgan qismlarga qayta ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, hozirgi davrdagi SI ilmiy tadqiqot metodlarini, san’at sohasida mualliflik va originallik tushunchalarini, madaniyatda ijodiylik mezonlarini, ijtimoiy hayotda mehnat, mas’uliyat va boshqaruv shakllarini qayta ko‘rib chiqishga majbur qilmoqda. Shu jihatdan biz sun’iy intellekt va sun’iy hayotni integratsion-metodologik tafakkurning nafaqat mahsuli, balki uning keyingi rivojini belgilayotgan faol emerjent voqelik sifatida baholaymiz. SI inson faoliyatini qayta tashkil etishga katta ta’sir ko‘rsatayotgan emerjent voqelik sifatida aks etayotgan bo‘lsa-da, u hozircha fundamental maqsadlarni mustaqil belgilaydigan subyektga aylanmadi. Shu nuqtayi nazardan, yuqoridan pastga yo‘nalgan sababiy bog‘lanish sun’iy intellekt misolida ham to‘liq yechim topmadi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, emerjentlik fenomenining shakllanishi, mohiyati va uning sinkretik tafakkur bilan aloqadorligiga oid tahlillar asosida quyidagi ilmiy dalillarni aniqladik:

birinchidan, falsafa tarixida qism va butun munosabati ontologik, gnoseologik va metodologik nuqtayi nazardan muhim ahamiyat kasb etgan. Sharq va G‘arb falsafasida ularning mohiyatiga oid turli qarashlar mavjud bo‘lsa-da, butunlik hech qachon qismlarning betartib va mexanik yig‘indisi sifatida talqin etilmagan. Garchi qismlarning o‘zaro ta’siri natijasida butunning yangi sifat kasb etishini ifodalovchi “emerjentlik” ilmiy atama sifatida XIX–XX asrlarda shakllangan bo‘lsa ham, uning mazmuniga yaqin g‘oyalarni falsafa tarixida avval mavjud bo‘lgan falsafiy izlanishlarning davomi deb baholash mumkin;

ikkinchidan, emerjentlik fenomeni butunning qismlarga nisbatan yangi sifat holatini kasb etishi bilan tavsiflansa-da, mazkur yangi sifat qismlardan mutlaq mustaqil holda paydo bo‘lmaydi. Shu jihatdan emerjentlik sababiyatni inkor etuvchi konsepsiya emas, balki reduksionistik izohlashning cheklanganini anglatadigan nazariy yondashuvdir. Ejergentlik xususiyati muayyan tayanch

shartlarga bog‘liq holda paydo bo‘ladi, ammo butun qismda mavjud bo‘lmagan xususiyatlarga ega bo‘lishi yoki, aksincha, qismda mavjud ayrim xususiyatlarni cheklashi mumkin. Shu ma’noda, butun hech qachon qismga nisbatan aynan teng xususiyatlarni aks ettirmaydi;

uchinchidan, emerjentizm jarayonida yuqoridan pastga yo‘nalgan, ya’ni butunning qismlarga sababiy ta’sir ko‘rsatishiga oid munosabatlar masalasi alohida o‘rin tutadi. Bu tizimning keyingi holatiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini asoslash bilan bog‘liq bo‘lib, u hanuz emerjentizmning bahsli va metodologik jihatdan eng muhim mavzularidan biri bo‘lib qolmoqda;

to‘rtinchidan, qism va butun munosabati, yuqoridan quyiga ta’sir ko‘rsata oladigan emerjentlik haqidagi nazariy yondashuvlar va falsafiy tahlillar inson ongini yaxlit emerjent fenomen sifatida talqin etish imkoniyatini bermoqda. Zero, u miya, tana, xotira, ijtimoiy tajriba va madaniy ma’nolarning o‘zaro ta’sirida shakllangan, o‘zini tashkil etuvchi, o‘z xatti-harakatlarini boshqara oladigan, o‘zini refleksiv ravishda qayta shakllantiradigan emerjent butunlikdir;

beshinchidan, sinkretik tafakkurda emerjentlikning aks etish jarayoni uch asosiy bosqichda namoyon bo‘ladi. “Mifologik-sinkretik bosqich”da bilim, e’tiqod va amaliy tajribalar yaxlit, ajralmagan holda shakllangan bo‘lsa, “differensial-nazariy bosqich”da mazkur yaxlitlik ichki demarkatsiyaga uchragan va unda falsafiy, diniy, ilmiy hamda axloqiy tafakkur nisbiy mustaqillik kasb etgan. “Integratsion-metodologik bosqich”da esa turli tarmoqlarga ajralgan bilim shakllari yangi darajada qayta bog‘langan va u fanlararo yondashuvlar, murakkab tizimlar nazariyasi, sun’iy intellekt kabi emerjent voqeliklar asosida rivojlangan. Bu jarayonda sinkretik tafakkur ziddiyatli va inqirozli vaziyatlarda yangi ma’no, yangi bilish tartibi va umuman yangi butunlikni hosil etuvchi evristik mexanizm vazifasini bajargan.

BIBLIOGRAFIYA

1. Alexander S. (1966). Space, Time and Deity. Vol. 1. New York: Dover Publications. 355 p.
2. Arshinov V., Fuchs C. (eds.) (2003). Causality, Emergence, Self-Organisation. Vienna: INTAS Project. 332 p.
3. Aristotle. (2016). Metaphysics (C. D. C. Reeve, Trans.). Hackett Publishing Company. 688 p.
4. Clayton P. (2004). Mind and Emergence: From Quantum to Consciousness. Oxford: Oxford University Press. 236 p.
5. Cornford F.M. (1912). From Religion to Philosophy: A Study in the Origins of Western Speculation. London: Edward Arnold. 275 p.
6. Holland J.H. (1998). Emergence: From Chaos to Order. Cambridge, Massachusetts: Perseus Books. 258 p.
7. Kim J. (2006). Emergence: Core Ideas and Issues // Synthese. Vol. 151. P. 547–559. DOI: 10.1007/s11229-006-9025-0.
8. Lewes G.H. (1875). Problems of Life and Mind. Vol. 2. London: Kegan Paul, Trench, Trübner & Co. 496 p.

9. Mill J.S. (1884). *A* System of Logic Ratiocinative and Inductive, Being a Connected View of the Principles of Evidence, and the Methods of Scientific Investigation. London: Longmans, Green, Reader, 622 p.

10. Morowitz H.J. (2002). The Emergence of Everything: How the World Became Complex. New York: Oxford University Press. 209 p.

11. Mullins D.A., Hoyer D., Collins C., Currie T., Feeney K., François P., Savage P.E., Whitehouse H., Turchin P. (2018). A Systematic Assessment of "Axial Age" Proposals Using Global Comparative Historical Evidence // American Sociological Review. Vol. 83. No. 3. P. 596–626.

12. Библер В.С. (1991). Из "заметок впрок" // Вопросы философии. № 6. С. 21–22.

13. Гейзенберг В. (1989). Физика и философия. Часть и целое / Пер. с нем. И.А. Акчурина, Э.П. Андреева. Москва: Наука, Главная редакция физико-математической литературы. 400 с.

14. Господинов С. (2022). Эмерджентность и эволюция систем // Образовательные ресурсы и технологии. № 1 (38). С. 91–101.

15. Крылов А.О. (2024). Интеллектуалы Древнего мира. Часть 1 // *Гуманитарный вестник*. № 1 (884). С. 1–13. DOI: 10.18698/2306-8477-2024-1-884. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/intellektualy-drevnego-mira-chast-1 (дата обращения: 03.05.2026).

16. Морен Э. (2005). Метод. Природа природы. -Москва: Прогресс-Традиция. 464 с.

Камилов Даврон Зафарович
доктор философии (PhD) по философским наукам, доцент
Академия правоохранительных органов Республики Узбекистан
e-mail: davrkamil02@gmail.com
(Ташкент, Узбекистан)

ФЕНОМЕН ЭМЕРДЖЕНТНОСТИ И ЕГО ОТРАЖЕНИЕ В СИНКРЕТИЧЕСКОМ МЫШЛЕНИИ

Аннотация. Феномен эмерджентности объясняет возникновение новых качеств в результате сложных взаимодействий между частями, несводимых к их простой сумме, и позволяет раскрыть онтологическое и гносеологическое содержание отношений части и целого. В синкретическом мышлении взаимосвязь различных форм знания, ценностей и опыта создаёт предпосылки для появления новых смыслов и форм понимания. Однако отождествление любых проявлений синкретического объединения с эмерджентностью размывает различие между простым соединением разнородных элементов и возникновением нового качества. В связи с этим цель статьи заключается в раскрытии философской сущности феномена эмерджентности, определении условий его проявления в синкретическом мышлении и обосновании его методологического значения для

формирования новых качеств и смыслов на основе сопоставления редукционистского, холистического и системного подходов.

Ключевые слова: эмерджентность, синкретическое мышление, часть и целое, новое качество, сложная система, редукционизм, холизм, системный подход, философское мышление, интегративное знание.

Kamilov Davron Zafarovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences, Associate Professor
Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan
e-mail: davrkamil02@gmail.com
(Tashkent, Uzbekistan)

THE PHENOMENON OF EMERGENCE AND ITS REFLECTION IN SYNCRETIC THINKING

Abstract. The phenomenon of emergence explains how complex interactions among parts produce new qualities that cannot be reduced to their simple sum, thereby illuminating the ontological and epistemological dimensions of the relationship between parts and wholes. In syncretic thinking, connections among diverse forms of knowledge, values, and experience create conditions for the development of new meanings and forms of understanding. However, equating every instance of syncretic combination with emergence obscures the distinction between the mere combination of heterogeneous elements and the emergence of a new quality. Therefore, this article aims to clarify the philosophical nature of emergence, identify the conditions under which it manifests itself in syncretic thinking, and establish its methodological significance for the formation of new qualities and meanings through a comparison of reductionist, holistic, and systems approaches.

Keywords: emergence, syncretic thinking, part and whole, new quality, complex system, reductionism, holism, systemic approach, philosophical thinking, integrative knowledge.

